

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI KASBIY FAOLIYATINING INDIVIDUAL USLUBLARI

Maratov Temur G'ayrat o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası

katta o'qituvchisi

Maxway0210@gmail.com

+998998921993

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14575228>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi kasbiy faoliyatining muhim jihatlari va tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida individual uslublarning ahamiyati, o'ziga xos qirralari muhokama qilingan. Shuningdek, kasbiy faoliyatning individual uslublari turli nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagog, tarbiyachi, individ, individual faoliyat uslubi, psixologik harakteristika, shaxsiyat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются важные аспекты профессиональной деятельности педагога дошкольного образования и значение отдельных стилей в профессиональной деятельности воспитателей, их уникальные аспекты. Также анализируются отдельные стили профессиональной деятельности на основе различных теоретических подходов.

Ключевые слова: педагог, воспитатель, личность, индивидуальный стиль деятельности, психологические особенности, личность.

Abstract. This article discusses the important aspects of the professional activity of a preschool teacher and the importance of individual styles in the professional activity of educators, their unique aspects. Also, individual styles of professional activity are analyzed based on various theoretical approaches.

Key words: pedagogue, educator, individual, individual activity style, psychological characteristics, personality

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar sharoitida shaxsning o'ziga xosligini rivojlantirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Har tomonlama yetuk, o'z faoliyatiga doir mustaqil qarorlar qabul qilish va ularni o'z faoliyatida amalga oshirishga qodir bo'lgan faol, ijodkor shaxsga talab ortib bormoqda. Bunday shaxsni faqat raqobatbardosh, kreativ ishlay oladigan, pedagogik faoliyatni rejalashtirish va prognozlash, o'z-o'zini takomillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lgan professional pedagog tarbiyalashi mumkin. Ma'lumki, pedagogik faoliyat, boshqa har qanday faoliyat kabi, muayyan faoliyat uslublari bilan tavsiflanadi. Umumiy ma'noda "uslub" tushunchasi faoliyatni amalga oshirish uchun muayyan barqaror usul va uslublar tizimining mavjudligini anglatadi. Ushbu tizim bu faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan turli sharoitlarda o'zini namoyon qiladigan barqaror xususiyatlar bilan harakterlanadi. Faoliyat predmetida qanday ijro uslubi rivojlanishi, birinchi navbatda, uning individual psixologik xususiyatlari - temperament turi, xarakter xususiyatlari, kasbiy qobiliyatlarning rivojlanish darajasi va boshqalar bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogning individual faoliyat uslubini rivojlantirish muammosi ko'plab mahalliy va xorijiy mutaxassislar tomonidan o'rganilgan, ular orasida A.K.Markova, A.Ya.Nikonova, N.V.Kuzmina, E.A.Klimov, B.S.Merlin, E.V.Malofeev, A.V.Rudenko, V.A.Stepanov, V.A.Kan-Kalik, V.I.Zagvyazinskiy, E.P.Chernichkina, S.G.Izmailov, D.Turayeva, M.Shirinov, N.Xolyigitovalarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Bu mualliflar asarlarini tahlil qilish shunday xulosa chiqarishga imkon beradiki, ushbu pedagogik hodisaning mavjudligi pedagogning kasb egasi sifatida rivojlanishi, integratsiyalashuvi va amaliyotga tatbiq etilishidan dalolat beradi. Shuningdek, individual uslublar kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarni vujudga keltirib, pedagog ular orqali o'z ichki olamini faol va sifatli o'zgartirish, psixologik qulaylik va faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin. Masalan, E.A.Klimov, B.S.Merlin pedagogik faoliyatining individual uslubi mavjudligini uning yuqoriroq faoliyat sub'yekti sifatida ko'tarilishi bilan bog'laydi; E.V.Malofeev, A.V.Rudenko, V.A.Stepanov individual faoliyat uslubida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarning ma'lum darajadagi timsolini ko'radi; V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik o'qituvchining individual uslubini intellektual tashabbus, topshirilgan muammolarni hal qilishning o'ziga xos usuli bilan bog'laydi; A.K.Markova va E.P.Chernichkina pedagogik faoliyatning individual uslubini o'qituvchining maxsus pedagogik uslubi, uning individual ish uslubi sifatida ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'kidlash lozimki, pedagog kasbiy faoliyati davomida muhim kasbiy ko'nikmalarni egallab boradi. Ayni shu jarayonda pedagogning kasbiy individual uslublari ham shakllanib boradi. Pedagogik va psixologik lug'atlarda pedagog faoliyatning individual uslubi - bu uning faoliyatida rivojlanadigan va namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatlarining umumlashtirilgan xarakteristikasi hisoblanadi. Individual uslub o'ziga xos tarbiyaga, sub'ektning psixologik fazilatlariga, asab tizimining shartli xususiyatlariga, shuningdek, individual va doimiy takrorlanadigan bir xil holatlar (ishlab chiqarish va boshqalar) bilan chambarchas bog'liqdir. E.A.Klimovning ta'kidlashicha, faoliyat uslubi "bu faoliyatni eng yaxshi amalga oshirishga intilayotgan shaxsda rivojlanadigan tipologik xususiyatlar bilan shartlangan barqaror usullar tizimidir"[4]. Ushbu ta'rifdan anglash mumkinki, faoliyatning eng yaxshi ko'rsatkichi uning texnikasi va usullarining individual noyob kombinatsiyasi tufayli erishiladi.

Pedagogda paydo bo'layotgan individual pedagogik faoliyat uslubiga uchta asosiy omil ta'sir qiladi:

- 1) ushbu faoliyat sub'ektining individual-psixologik xususiyatlari, shu jumladan individual tipologik, shaxsiy va xulq-atvor jihatlari
- 2) faoliyatning o'ziga xos psixologik xususiyatlari;
- 3) ta'lim oluvchilarning xususiyatlari (yoshi, jinsi, holati, bilim darajasi va boshqalar).

Pedagogik faoliyatning individual uslubi namoyon bo'lishining asosiy yo'nalishlari:

-Temperament (reaktsiya vaqti va tezligi, ishning individual sur'ati, hissiy sezgirlik);

-Muayyan pedagogik vaziyatlarga, shuningdek, bolalarning turli harakatlariga nisbatan munosabatlar;

-Ta'lim usullarini tanlash;

-Ta'lim vositalarini tanlash;

-Pedagogik muloqot uslubi;

-Ta'lim oluvchilarga psixologik va pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalaridan foydalanish, shu jumladan rag'bat va jazolarning ayrim turlariga ustunlik berish.

Ta'kidlash lozimki, har bir pedagog uchun individual faoliyat uslubini shakllantirish boshqalarning, hatto eng ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanishga tabiiy cheklovlarni qo'yadi. Tarbiyachi shuni yodda tutishi kerakki, ilg'or tajriba deyarli har doim muallifning shaxsiyatidan ajralmagan va universal ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik ko'nikmalar va individualligining o'ziga xos birikmasidir, shuning uchun boshqa birovning pedagogik tajribasidan bevosita nusxa ko'chirish har doim ham samarali bo'lmazligi mumkin. Tarbiyachi boshqalarning pedagogik tajribalariga shaxs sifatida mos kelmasligi yoki ularni amalga oshirish uchun undan ko'proq harakat talab etilishi mumkin, bu ularning samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradi. Ilg'or pedagogik tajriba nafaqat ko'chirilishi balki ongli va ijodiy qayta ishlanishi kerak, undagi asosiy narsani idrok etgan holda, tarbiyachi doimo o'z shaxsiyatini saqlab qolishga intilishi kerak, ya'ni yorqin pedagogik individuallik va ilg'or pedagogik tajribani o'zlashtirish asosida o'qitish va tarbiyalash samaradorligini oshirish mumkin.

Pedagogik faoliyat uslublarining to'liq va umume'tirof etilgan kontseptsiyasi A.K.Markova va A.Ya.Nikonovalar tomonidan taklif qilingan bo'lib, mualliflarning fikricha, faoliyat uslublarini tasniflash quyidagilarga asoslanishi mumkin[5]:

a)uning mazmunli xususiyatlari (tarbiyachining o'z ishinining jarayoni yoki natijasiga ustuvor yo'nalganligi);

b)faoliyatda indikativ (ichki qiymat) va nazorat-baho bosqichlarini ifodalash darajasi;

v)dinamik xarakteristikalar (egiluvchanlik, barqarorlik, o'zgaruvchanlik va boshqalar);

d)samaradorlik (bolalarning bilim va ko'nikmalar darajasi, fanga qiziqishi). Shu asosda pedagog faoliyatining to'rtta individual uslublari farqlanadi:

Hissiy va improvizatsiya. Tarbiyachi asosiy e'tiborni o'quv jarayoniga qaratadi, shu boisdan u mashg'ulot uchun eng qiziqarli materialni tanlab, ko'pincha bolalarning mustaqil ishlashi uchun zarur bo'lgan materiallarini qoldiradi. U asosan yaxshi o'zlashtirib oluvchi bolalar bilan ko'proq ishlab, o'tgan materialni takrorlash va mustahkamlash, bolalar bilimini nazorat qilish haqida yetarlicha o'ylamaydi. Uning faoliyati faqat moslashuvchanlik va impulsivlikka xosdir.

Hissiy va fikrlash. Tarbiyachi asosiy e'tiborni jarayonga ham, ta'lim natijasiga ham qaratadi. U bosqichma-bosqich barcha o'quv materialini ishlab chiqadi, uni takrorlash va mustahkamlash haqida o'ylaydi hamda bolalarni qay darajada o'zlashtirayotganligini nazorat qiladi. Tarbiyachining faoliyati yuqori samaradorlik (vaziyatga tezkor munosabat) bilan tavsiflanadi. Bolalarning faolligini tashqi o'yin-kulgilar bilan emas, balki o'tilayotgan mashg'ulot mazmuni bilan faollashtirishga intiladi.

Fikrlash va improvizatsiya uslubi. Tarbiyachi faoliyati ta'lim jarayoni va natijalariga teng yo'naltirilgan bo'ladi, ta'lim jarayonini adekvat rejalashtiradi. Hissiy uslublarga ega tarbiyachilari bilan solishtirganda, ular o'qitish usullarini tanlash va o'zgartirishga kamroq ahamiyat qaratib, har doim ham yuqori ish sur'atini ta'minlay olmaydi, kamdan-kam hollarda jamoaviy muhokamalar bilan shug'ullanadi. Shuning uchun bu kabi faoliyat uslubiga xos mashg'ulotlarda bolalarning muloqot ko'nikmalari sekin rivojlanadi. Ushbu faoliyat uslubida intuitsiyadan ko'ra refleksivlikning ma'lum ustunligini kuzatish mumkin, bu unga o'z ishiningsamaradorligini yetarli darajada tahlil qilish imkonini beradi, lekin mashg'ulotlarda xatti-harakatlar imkoniyatlarini cheklaydi.

Fikrlash va tanqidiy. Tarbiyachi faoliyati birinchi navbatda ta'lim natijalariga qaratilgan bo'lib, doimiy ravishda ta'lim jarayonini adekvat rejalashtiradi. Boshqa uslub vakillaridan pedagogik faoliyat vositalari va usullarini tanlashda konservatizm bilan ajralib turadi. Shuningdek, ushbu faoliyat uslubida o'qitish usullarining kichik standart to'plami qo'llaniladi, o'rganilgan materialni bolalar tomonidan takrorlashga ustunlik beriladi, individual ijodiy vazifalar amalda berilmaydi hamda jamoaviy muhokamalar juda kam o'tkaziladi.

Tarbiyachi faoliyatida jamoaga rahbarlik qilish uslublari. Pedagogik faoliyat, birinchi navbatda, bolalarning ta'lim faoliyatini boshqarish va rahbarlik qilish bilan bog'liq, shuning uchun unga nisbatan K.A.Levin tomonidan taklif qilingan yetakchilik uslublari tasnifidan foydalanishni afzal deb hisoblash mumkin[2]. U uchta yetakchilik uslubini ajratib ko'rsatadi:

- avtoritar;

- demokrati;

- liberal. G.M.Andreeva ta'kidlaganidek, ushbu uslublarning har birining o'ziga xosligi rahbar tomonidan qaror qabul qilish turida ifodalanadi.

Pedagoglarning individual uslublarini tadqiq etgan taniqli olim V.S.Merlinning ta'kidlashicha[3], faoliyatning noaniq tomonlari individual uslub faoliyatining muhim sharti hisoblanadi. Bu nafaqat jarayonlarga, balki turli odamlar biror narsaga erishish uchun tanlagan usullarning noaniq tomonlarini ham kiritish mumkin. Shu nuqtai nazardan, bolalar bog'chasi tarbiyachisining faoliyati o'zini namoyon qilish va individual uslub uchun o'ziga xos maydon vazifasini o'taydi.

Tarbiyachi kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bolalar faoliyatining barcha turlarini boshqaradi. Tadqiqotchi S.B.Pashkin[6] tarbiyachilarga xos uchta ta'lim individual faoliyat uslublarini alohida ajratib ko'rsatadi.

Tarbiyachining didaktik faoliyat uslubi. Tarbiyachi o'yin mashg'ulotlarida ushbu faoliyat uslubini namoyon qiladi. Unga ko'ra, tarbiyachi bolalarda o'yin o'ynash jarayonida o'z pozitsiyalariga ega bo'lishni o'rgatib, har bir pozitsiya bo'yicha moyillikni shakllantiradi. (Masalan, MTT da biror bayram munosabati bilan sahnalashtirilayotgan ertak qahramonlarini tanlashda, rollarni bolalarga bo'lib berish va uning xususiyatidan kelib chiqib rollarga moslashtirishda namoyon bo'ladi). Tarbiyachining didaktik uslubi asosan o'yin motivlariga keng ta'sir ko'rsatishi, bola bilan bevosita va bilvosita muloqoti, tanlangan metodlardan qay darajada foydalanish bilan tavsiflanadi. Ushbu uslubda bolani baholashda o'yin faoliyatida o'z xatti-harakati haqida qarashlariga tayanadi.

Tarbiyachi faoliyatining garmonik (uyg'unlashtiruvchi) uslubi bolalar faoliyatining barcha asosiy turlariga bir xil darajada yuqori qiziqishning namoyon bo'lishi va ularni muvaffaqiyatli boshqarish bilan tavsiflanadi. Bunday faoliyat uslubi natijasida bolalar o'yin, badiiy, kundalik, mehnat, o'quv faoliyati va tajribada ham nisbatan yuqori natijalarga erishadilar. Ushbu faoliyat uslubiga ega bo'lgan tarbiyachilar ta'sir ko'rsatishda: bolalarning yosh va individual xususiyatlarni, nazorat qilinadigan faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini, bolalarning javoblarini, o'zgaruvchan vaziyatlarni va boshqalarni hisobga oladilar. Shuningdek ushbu uslub orqali bolalarni ko'p jihatdan tavsiflab maktabgacha yoshdagi bolalarning turli faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini baholaydi. Ular bolalar bilan turli xil muloqot turlariga osongina kirishadi.

Tarbiyachining rasmiy-pragmatik (befarqlik) uslubi o'z vazifalarini bajarishda juda yuqori qat'iyatlilik va mas'uliyat, bolalarga nisbatan talabchanlik bilan harakterlanadi. Tarbiyachi bolalar va ularning ota-onalari bilan ishlash, ular bilan munosabatalarga kirishishda rasmiy talablarga bo'ysinadi. Shu bilan birga, ular munosabatalarida hamdardlik yoki xushmuomalalik ko'rsatmaydi. Bolaga umumiy baho berish, odatda, umumiy talablarni bajarishiga asoslanadi. Bolalar bilan iliq munosabatlar o'rniga asosan befarqlik tez-tez kuzatiladi. Tarbiyachining befarq uslubi bolalarning muayyan faoliyatiga aniq e'tiborning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Bunday tarbiyachilar bolalar bilan ishlashga befarq bo'lib, o'z vazifalarini rasmiy ravishda bajarib, bolani yoki uning oilasini o'rganishga qiziqish bildirmaydi. Bolalarni baholash, birinchi navbatda, muntazam vazifalar va faoliyat davomida xatti-harakatlarga asoslanadi. Shuningdek, boshqa hamkasblari bilan yaqin aloqa mavjud emas.

Bolalar bog'chasi tarbiyachilarning turli xil individual uslublari A.G.Ismagilova[1] tomonidan neyro va psixodinamik xususiyatlarga bog'liq holda tahlil qilingan. Muallif, individual uslublarning ikki ko'rinishini ajratib ko'rsatadi:

1.A uslubi - kuchli va labil asab tizimiga ega, aqliy jihatdan muvozanatsiz;

2.B uslubi kuchli va inert asab tizimiga ega, aqliy jihatdan muvozanatlashgan.

Shuningdek, muallif uslublarni ayrim jihatlariga ko'ra farqlarini ajratib ko'rsatadi:

a)maqsadlarni belgilash tabiati, harakatlarni tanlashga ko'ra:

-A uslubi tashkiliy va tuzatuvchi harakatlar bilan tavsiflanadi;

-B uslubi nazorat qiluvchi va rag'batlantiruvchi baholovchi harakatlar bilan tavsiflanadi.

b)operatsiyalarga ko'ra:

-A uslubida to'g'ridan-to'g'ri murojaatlar ustunlik qilishi;

-B uslubida - bilvosita.

c)sifatiga ko'ra:

-A uslub salbiy;

-B uslub - ijobiy deb baholanadi.

Muallifning fikricha, ijobiy uslub individuallikning uyg'un rivojlanishiga va ko'p darajali individual xususiyatlarni muvofiqlashtirishga yordam beradi. Salbiy uslublar esa ularning mos kelmasligiga, individuallikni rivojlantirishda nomutanosiblikka olib keladi. Individual uslubning rivojlanishining dastlabki bosqichida tabiiy moyilliklar katta rol o'ynaydi. Uslubni shakllantirish jarayonida hal qiluvchi rol sifatida

tarbiyachilarning shaxsiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari e'tiborga olinadi. Maxsus olib borilgan tadqiqotlar va hayotiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, individual uslub kasbiy faoliyatni o'zlashtirish jarayonida ham ongli, ham o'z-o'zidan shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish lozimki, kasbiy faoliyatni ongli ravishda o'zlashtirish o'z-o'zini nazorat qilish va avtodiagnostika (o'z-o'zini tashxis qiish) bilan harakterlanadi. Ular qanchalik mazmunli, puxta va teran bo'lsa, individual faoliyat uslubini belgilash, uni shakllantirishning maqbul yo'llari va vositalarini ishlab chiqish, yanada takomillashtirish shunchalik oson bo'ladi. Ijobiy individual faoliyat uslubiga ega bo'lish tarbiyachining o'zi ham, u bilan birga ishlaydiganlar tomonidan ham ijodiy o'zini namoyon qilish va quvonch hissini boshdan kechirish imkoniyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismagilova A. G. Pedagogical contact style of a kindergarten educator //VOPROSY PSIKHOLOGII. – 2000. – №. 5. – С. 65-71.
2. Levin K. A., Currie C. Family structure, mother-child communication, father-child communication, and adolescent life satisfaction: A cross-sectional multilevel analysis //Health Education. – 2010. – Т. 110. – №. 3. – С. 152-168.
3. Merlin V. S. Problems in the integrated study of individual differences //Soviet Psychology. – 1981. – Т. 20. – №. 2. – С. 49-72.
4. Климов Е. А. Путь в профессионализм //Акмеология. – 2002. – №. 3. – С. 48-54.
5. Маркова А. К., Никонова А. Я. Психологические особенности индивидуального стиля деятельности учителя //Вопросы психологии. – 1987. – Т. 5. – С. 40-48.
6. Пашкин С. Б., Минко А. Н. Индивидуальный стиль педагогической деятельности преподавателя вуза МВД России //ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЕДИНОГО НАУЧНОГО. – 2017. – С. 199.